

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**BOYMANOV SHOXRUX OTAQULOVICH**

**INTERPOLIKOMPLEKS ASOSIDA QUNDUZ (*Myocastor coypus*)  
TERILARINI OSHLASH, TEXNOLOGIYASI VA XOSSALARI**

**05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi  
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in technical sciences**

**Boymanov Shoxrux Otaqulovich**

Interpolikompleks asosida qunduz (*Myocastor coypus*) terilarini oshlash,  
texnologiyasi va xossalari.....3

**Бойманов Шохрух Отакулович**

Дубление, технология и свойства шкур нутрий (*Myocastor coypus*) на  
основе интерполикомплекса.....21

**Boymanov Shokhrukh**

Tanning, technology and properties of nutria skins (*Myocastor coypus*) based  
on interpolycomplex.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....45**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**BOYMANOV SHOXRUX OTAQULOVICH**

**INTERPOLIKOMPLEKS ASOSIDA QUNDUZ (*Myocastor coypus*)  
TERILARINI OSHLASH, TEXNOLOGIYASI VA XOSSALARI**

**05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi  
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5408 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirov To'liqin Jumayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Shoyimov Shohrux Shuhratovich**  
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil 20 noyabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz) TTYSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 246 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08. e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 31 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 31 oktabrdagi № 246 raqamli reyestr bayonnomasi).



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** O'tgan asrning oxirlarida qunduz mo'ynasiga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada o'sib, buning natijasida mo'ynaning mahobatli va jozibadorligi muqobil biznesga aylandi<sup>1</sup>. Dunyo miqyosida 90 % dan ortiq charm va mo'yna mahsulotlari xrom oshlovchilari ishtirokida ishlab chiqariladi. Jahonda mo'yna xomashyolarini oshlash texnologiyasida ekologik muammolarga olib kelayotgan, suvda qiyin eriydigan, suv havzalarini zaharlovchi xrom oshlovchilarning miqdorini kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, jumladan suvda to'liq eriydigan, oqava suvlarini zaharlamaydigan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, terining strukturaviy elementlari bilan oson kimyoviy bog'lar hosil qiladigan va teri strukturasi yuvilmaydigan oshlovchilar asosida teriga chuqur ishlov berish texnologiyasiga hamda tayyor mahsulot sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda qunduz mo'ynalarini ishlab chiqarishda qunduz terilarining gistologik tuzilishi, dastlabki ishlov berish texnologiyasi, navlari, yashash sharoitining tayyor mo'yna fizik-kimyoviy xossalari ta'siri va qunduz terisini oshlash texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishlar, jumladan, qunduz teri morfologik strukturasi kompleks kimyoviy, fizik-mexanik va gigiyenik xossalarni ta'minlovchi maxsus oshlovchilarni yaratish va ularni oshlash texnologiyasida qo'llash borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, zaharli xrom oshlovchi moddalar miqdorini kamaytirish, alternativ oshlovchi materiallardan foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qunduz terilariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish, tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy, mexanik va gigiyenik xossalari tadqiq qilish dolzarb vazifalar jumlasidandir.

Respublikamizda yetishtirilayotgan charm va mo'yna xomashyolarini qayta ishlash asosida, mo'yna mahsulotlarini tayyorlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, jumladan qunduz teri xomashyolarini chuqur qayta ishlash natijasida raqobatbardosh va qimmatbaho mo'yna assortimentlarini kengaytirish orqali eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan mahalliy xomashyolardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi, eksportbop va raqobatbardosh, hamda xossalari yaxshilangan qunduz mo'ynalari ishlab chiqarish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 oktabrdagi PQ-331-sonli "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil

<sup>1</sup>Lauren E., Nutria Survivorship, Movement Patterns, and Home Ranges// Southeastern naturalist, 2009.P.399-410.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoni.

8 fevraldagi PQ-4982-son «Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalari yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2024 yil 20 maydagi PQ-181-son “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalarini rivojlanishning II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi vaqtda bir qator olimlar tomonidan charm va mo‘ynaga ishlov berish texnologik jarayonlarini takomillashtirish, mo‘yna assortimentlarini kengaytirish, yangi oshlovchi moddalarni sintez qilish, ularning mo‘yna teri to‘qimalariga ta’sir mexanizmi va qonuniyatlari, qunduz hayvoni populyatsiyasi, qunduz terisi va jun qatlami xossalari bo‘yicha chet el olimlaridan Lauren E., Шевченко А.А., Михайлов Р., Баранов В.А., Данилкович А.Г., Насирова Р.А., Шкумат А.П., Андреева О.А., Сысоев В.А., Чурсин В.И., Илькович Ю.В., Калашникова Ю.М., Райнерс Ю., Кротова С.Ю., Лобова Л.В., Лутфуллина Г.Г., Рахматуллина Г.Р., Huang W.L., Xu Sh., Ding W., Ma J., Ork N., Zhang Z., Sathiyamoorthy M., Combalia F., Hedberg Y.S., Ariram N., Karanam S.B., Jayakumar G.C., Michele M. va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Respublikamizda mahalliy sanoat mahsulotlari asosida mo‘ynali terilarga qayta ishlov berish jarayonlari uchun funksional moddalarni sintez qilish, ularning texnologiyasi va mo‘yna mahsulotlari xossalari tadqiq etish bo‘yicha qator olimlar: Ro‘ziyev R., Qodirov T.J., Toshev A.Y., Azimov J.SH., Kazakov F.F., Xudanov U.O., Haydarov A.O. va boshqalar mazkur soha ilmining rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Ammo, mazkur tadqiqotlar natijasida mo‘yna terilarini interpolikompleks asosida oshlash, xususan qunduz terilarida an’anaviy qimmatbaho va zaharli xrom oshlovchisini qisqartirib, o‘rniga kompleks xossalar beruvchi interpolikompleks bilan oshlashning texnologik va ilmiy asoslari yetarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot rejasining innovatsion loyihalari va “Interpolikompleks asosida qunduz (Myocastor coypus) terilarini oshlash va tayyor mahsulot xossalari ta’sirining tadqiqoti” (2025 yil, №04/2025) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** interpolikompleksning dastlabki nisbatlarini aniqlash, sintez qilish va uning asosiy fizik- kimyoviy xossalari, hamda oshlovchilik xususiyatini tahlil qilish va qunduz terilarini interpolikompleks asosida chuqur qayta ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

interpolikompleksning dastlabki nisbatlarini aniqlash, sintez qilish, asosiy

fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish va texnologik sxemasini ishlab chiqish;

interpolikompleks asosida qunduz teri kollageniga ishlov berish va ishlov berilgan namunalar strukturasi zamonaviy fizik-kimyoviy, hamda spektroskopik usullar yordamida tahlil etish;

interpolikompleksning oshlash xususiyatini tadqiq qilish, hamda interpolikompleks asosida qunduz terilarini oshlash texnologik jarayon asosiy parametr va rejimlarini aniqlash;

interpolikompleks asosida qunduz terilarini oshlash texnologiyasini, hamda uning texnologik sxemasini ishlab chiqish;

interpolikompleks asosida ishlov berilgan tayyor qunduz mo'ynalarining fizik-kimyoviy va mexanik xossalarni tadqiq etish;

qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlash orqali erishiladigan texnik-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qunduz mo'yna xomashyosi, yarim va tayyor mahsuloti, xrompik, bentonit, charm changi, glitserin, karbonat natriy, sulfat kislota, xrom (III), interpolikompleks, qunduz teri kollageni, kollagen bilan interpolikompleksni o'zaro ta'sirlashgan mahsulotlari.

**Tadqiqotning predmeti** kollagen bilan interpolikompleksni modifikatsiyalanish jarayon va hodisalari, qunduz mo'yna terisini oshlash jarayoni, oshlash jarayonidagi strukturaviy o'zgarishlar, qunduz terisi bilan interpolikompleksni o'zaro ta'sir etish jarayonlarining mexanizm va kinetik qonuniyatlarini tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida zamonaviy optik, raqamli elektron mikroskop, DSC tahlil, IR-spektroskopiya, rentgenografiya tahlili, adsorbsion tahlil hamda fizik-mexanik xossalarni standart eksperimental usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oksidlanish qaytarilish jarayoni asosida interpolikompleks birikmasi sintez qilingan va uning dastlabki nisbatlari, rejimlari va fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan;

sintez qilingan oshlovchining qunduz teri kollageni bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida murakkab turdagi interpolimer kompleks kimyoviy bog' hosil qilishi IR-spektroskopiya usuli bilan identifikatsiyalangan;

interpolikompleks birikmasi asosida ishlov berilgan qunduz terilarining gigiyenik xossalari va morfologik strukturasi adsorbsion va mikroskopik usullar asosida teri strukturasi g'ovaklar sonini ortishi va diametri kamayishiga olib kelishi aniqlangan;

interpolikompleks birikma bilan ishlov berilgan tayyor qunduz mo'ynalarining fizik – kimyoviy va mexanik xossalari an'anaviy nazorat namunalariga nisbatan yaxshilanganligi hamda uning mustahkamlik chegarasi ortishiga olib kelishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

interpolikompleks birikmasi sintez qilinib, asosiy fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan va uning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

interpolikompleks birikmasi qunduz teri kollageni bilan o'zaro ta'sirlashib mustahkam kimyoviy kompleks bog'lar hosil qilganligi IR-spektroskopik, DSC va rentgenografik natijalariga ko'ra aniqlangan;

qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlashning jarayon, parametr va rejimlari aniqlangan, oshlash texnologiyasi va prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

interpolikompleks asosida oshlangan qunduz mo'ynalarining fizik- kimyoviy va mexanik xossalari yaxshilanganligi asoslangan;

tayyor mahsulot tajriba namunalarining nazorat namunasiga nisbatan derma strukturasi g'ovak radiusi kichrayib, g'ovaklar sonining ortishi ko'rsatilgan;

qunduz mo'yna nazorat namunasiga nisbatan interpolikompleks asosida oshlangan mo'ynalar gidrotermik destruksiya darajasi 16,8 % ga, mustahkamlik chegarasi 46,4 N ga va uzilishdagi uzayishi 6,8 % ga ortishi aniqlangan;

qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlash "Mexovaya moda" OK va "Karakul Lider" OK korxonalarida sinov partiyalarida amalga oshirilgan, hamda fizik-kimyoviy va mexanik xossalari yaxshilangan mo'yna ishlab chiqarilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qunduz terilarini noan'anaviy oshlash texnologiyasini ishlab chiqishda zamonaviy tahlil usullaridan foydalanib, ular asosida natijalar olinganligi, nazariy va eksperimental izlanish natijalarining o'zaro mos kelishi, tavsiya qilingan sinov natijalari va ularning ishlab chiqarishga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy sanoat mahsulotlari asosida qunduz kollageni va uning interpolikompleks bilan ta'sirlashgan mahsulotlarini xarakterli spektr sohalari siljishlarining muhim tafovutlari infra-qizil, rentgenofaz spektrlari, kollagenning karboksil, gidroksil, amin guruhlari bilan interpolikompleks karbonil guruhi orasida o'zaro interkompleks bog'larining hosil bo'lishi, tadqiqot natijalari asosida interpolikompleks kollagen bilan qaytmas ta'sirlashib payvand "oqsil-metall-polimer-oqsil" tizim mahsuloti hosil qilishi, qunduz teri derma morfologik ichki strukturasi interpolikompleksni bir maromda taqsimlanishining sodir bo'lishi tola tutamlari oraliqlarida interpolikompleks dispers zarrachalarini bloklar tarzida cho'kib o'tirishi, g'ovaklarni qisqarishi tayyor mahsulotni fizik-mexanik xossalarini ortishiga olib kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mahalliy sanoat mahsulotlari asosida qunduz terilarini oshlashda harorat, vaqt sarfi, suyuqlik rejim va parametrlari, shuningdek interpolikompleks bilan oshlangan qunduz mo'yna terilari namunalari tayyor mahsulotining kimyoviy, hamda fizik-mexanik xossalari va raqobatbardosh eksportbop tayyor mo'yna tijorat mahsulotlari, buyumlari tayyorlanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlash texnologiyasi hamda ishlov berilgan qunduz mo'ynasining fizik-kimyoviy va mexanik xossalari bo'yicha olingan natijalar asosida:

interpolikompleksni qunduz terilariga oshlovchi sifatida qo'llash texnologiyasi «O'zchamsanoat» uyushmasi tarkibidagi «Mexovaya moda» va "Karakul Lider" OK

korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan («O‘zcharmsanoat» uyushmasining 2025 yil 19 iyun 03-07/1834-son ma’lumotnomasi). Natijada qunduz terilariga interpolikompleks asosida ishlov berish texnologiyasini qo‘llash orqali tayyor mahsulotning mustahkamlik chegarasi 46,4 N ga, uzilishdagi uzayish 6,8 % ga, gidrotermik destruksiya harorati 16,8 % ga va ekspluatatsion davrining oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalarni qamrab olgan holda dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etib, 22 ta rasm, 11 ta jadval va 149 ta adabiyotlardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, uning obyekt hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobida** mo‘yna ishlab chiqarishda oshlash jarayonida qo‘llaniladigan kimyoviy reagentlar va ularning charm va mo‘yna teri to‘qimasiga beradigan xossalari, charm va mo‘ynani oshlashda qo‘llaniladigan moddalar, oshlash, qayta ishlash jarayonlarini zamonaviy va an‘anaviy usullari, hamda xromni o‘zaro almashtirishda yanada muqobil va jadallashtirish uslublari, charm va mo‘yna ishlab chiqarishda oshlash texnologik jarayonini olib borishning hozirgi kundagi holati va alternativ usullari, mo‘yna terilarini oshlash jarayonidagi muammolarni o‘rganish bo‘yicha o‘rganilgan ilmiy adabiyotlar, patentlar va dissertatsiyalar tahlili keltirilgan.

Qunduz teri xomashyolariga ishlov berishdagi oshlash jarayoni bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar tahliliga ko‘ra, qunduz terilarini oshlash jarayonida reagentlarning Respublikaga chet eldan keltirilishi, buning natijasida ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib kelishi, qolaversa oshlash jarayonida qo‘llaniladigan toksik xrom oshlovchilar miqdorini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, ushbu keltirib o‘tilgan muammolarni yechishda qunduz terilariga ishlov berishning oshlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarishga zarurat hosil bo‘lib, qilingan tahlillar natijasiga ko‘ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari, uslublarini tanlash va ularni asoslash**» deb nomlangan ikkinchi bobida qunduz terilaridan sifatli mo'yna ishlab chiqarishda oshlash jarayonini takomillashtirish maqsadida tanlangan obyektlar tavsifi, interpolikompleks birikmasi, qunduz teri kollageni va u bilan interpolikompleksning ta'sirlashgan mahsuloti, teri to'qimasi, yarim tayyor va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini aniqlashdagi, hamda ularning strukturasi tadqiq etishdagi raqamli elektron mikroskopiya, IR–spektroskopiya, DSC va rentgenografiya usullarining tasnifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Qunduz terisi kollagenini interpolikompleks bilan o'zaro ta'siri tadqiqoti**» deb nomlangan uchinchi bobida interpolikompleks tarkibiga kiruvchi moddalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda dastlabki nisbatlari tanlanib, interpolikompleks birikmasi sintez qilingan, hamda asosiy fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Interpolikompleks birikmasining oshlovchilik xususiyatini tadqiq qilish maqsadida u asosida qunduz teri kollageniga ishlov berilgan va ishlov berilgan namunalarda IR–spektroskopiya, DSC va rentgenografiya tadqiqotlari o'tkazilgan.

Tadqiqotda kompleks xossalarga ega bo'lgan yangi avlod oshlovchisi tarkibiga kiruvchi reagentlar xususiyatini inobatga olgan holda dastlabki miqdorlari tanlab olinib, sintez qilindi. Bunda interpolikompleksni sintez qilish jarayonini ketma-ketligi quyidagicha bajarildi: xrompik eritmasiga, mineral saqlagan modda, akrilat polimeri, eritmaga sulfat kislota, qaytaruvchi, va qo'shimcha tarzda natriy tuzi kiritildi. Mineral saqlagan modda sifatida - bentonit, akrilat polimeri sifatida – poliakrilamid, qaytaruvchi sifatida -charm changi yoki glitserin, natriy tuzi sifatida esa - karbonat natriy komponentlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan nisbatlarda qo'shildi.

### 1-jadval

#### Interpolikompleks birikmasini sintez qilishning umumiy tarkibi va dastlabki miqdorlari

№	Komponentlar nomi	Komponentlar ulushi, % da					
		tajriba					nazorat
		a	b	c	d	e	f'
1	Xrompik (dixromat kaliy yoki natriy).....	18,4	19,2	20,2	21,3	22,1	30,0
2	Sulfat kislota.....	18,3	18,7	20,2	21,3	21,5	12,5
3	Bentonit.....	2,2	2,9	1,7	2,1	1,0	8,7
4	Charm changi/Glitserin.....	4,6	5,0	5,1	4,2	4,4	11,2/-
5	Karbonat natriy.....	2,9	3,0	3,3	2,9	3,9	6,2
6	Poliakrilamid.....	7,3	7,5	6,7	7,3	6,4	11,2
7	Suv.....	qolgani					

*Izoh: a, b, c, d va e- tajriba variant, f'-mavjud nazorat varianti.*

Interpolikompleks birikmasini atroflicha tahlil qilish va optimal variantini tanlab olish maqsadida 5 xil variantda (a,b,c,d,e) sintez qilindi.

Sintez qilingan interpolikompleks birikmalari tajriba namunalari(a,b,c,d,e) va nazorat (f') namunasining ma'lum haroratdagi asosiy fizik-kimyoviy xossalari, ya'ni yeritma zichligi, qovushqoqligi va pH muhiti ma'lum uslub asosida o'rganildi.

Eritma zichligini hisoblash\* orqali aniqlashda quyidagi zichlikni aniqlash formulasi  $\rho = \frac{m}{v}$  dan  $m = \rho * v$  ni inobatga olgan holda  $\rho = \frac{\rho_1 V_1 + \rho_2 V_2 + \dots + \rho_n V_n}{V_1 + V_2 + \dots + V_n}$  formulasidan foydalanildi.

Bunda: m- modda massasi,  $\rho$ - modda zichligi, v- modda hajmi.

Interpolikompleks zichligini aniqlashning tajriba (areometr yordamida) usulida aniqlandi.

Tadqiqotni davom ettirgan holda interpolikompleksning tajriba (a,b,c,d,e) va nazorat (f'') namunasining pH muhit va qovushqoqlik qiymatlari kafedra laboratoriya jihozlari yordamida aniqlandi. Bunda pH muhit "pH-metr FiveGo™" yordamida, qovushqoqlik qiymati esa "Viscometer lamy rheology" yordamida aniqlandi va natijalari 2-jadvalda keltirildi.


2-jadval

Interpolikompleksning asosiy fizik-kimyoviy xossalari

№	Ko'rsatkichlar nomi		Interpolikompleks					
			tajriba					nazorat
			a	b	c	d	e	f''
1	Zichlik, g/sm <sup>3</sup>	hisoblangan*	1,32	1,34	1,35	1,37	1,38	1,55
		aniqlangan	1,32	1,33	1,34	1,36	1,37	1,54
3	Qovushqoqlik, cStokes		4,96	5,26	4,88	5,15	4,62	8,35
4	Muhit, pH		1,3-1,5					1,4-1,6
5	Harorati, °C		19-20					19-20

Hosil bo'lgan interpolikompleksning oshlovchilik xususiyatini tadqiq qilish maqsadida tajriba variantining o'rtacha (c varianti) asosida qunduz teri kollageniga ishlov berildi. Bunda 20 °C haroratda 3 soat mobaynida 10 % kollagen eritmasiga interpolikompleks (kollagen massasiga nisbatan 3,5 %) ta'sir ettirildi. Interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen aralashmasi (pH = 5,3) Petri chashkasida quritildi.

Kollagen bilan interpolikompleksni o'zaro ta'sir natijasi dastlabki va interpolikompleks bilan ishlov berilgan kollagenni IR-spektroskopiya usuli yordamida tekshirildi va quyidagi 1-rasmda: a'-sof kollagen va b'-interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen namunalarning spektrlari olinib o'zaro solishtirildi.




1-rasm. Namunalarning IR-spektrlari  
a'-sof kollagen, b'-interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen

Kollagen namunalari 1-3 spektrlarining 3300-2900  $\text{sm}^{-1}$  chastotalarda keng yoyilib ketgan sohalar kuzatildi (1.a'-rasm). Bu kollagenni ichki va molekulararo vodorod bog'larining borligi bilan izohlash mumkin. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari shuningdek, qunduz terisi kollagenining 1080, 1030 va 922  $\text{sm}^{-1}$  kuchsiz chastotalarida to'yinmagan C-O bog', 1236, 1201 va 1162  $\text{sm}^{-1}$  kuchsiz chastotalarida  $(\text{CH}_2)_3\text{N}$  bog', 1447, 1397 va 1334  $\text{sm}^{-1}$  kuchsiz chastotalarida C-H bog', 1528  $\text{sm}^{-1}$  kuchli chastotada N-H bog' va 1629  $\text{sm}^{-1}$  kuchli chastotada C=O bog'ning hosil bo'lganligi kuzatildi.

Ishlov berilmagan kollagen IR-spektrining 1527  $\text{sm}^{-1}$  sohasidagi chastota interpolikompleks bilan ishlov berilgan kollagen namunalariidagi IR-spektrining 1538-1520  $\text{sm}^{-1}$  sohalarida va 1629  $\text{sm}^{-1}$  sohasidagi chastota esa 1652 va 1634  $\text{sm}^{-1}$  sohalarida chastota mavjud bo'ldi. Bu hodisa kollagenni amin guruhlari bilan interpolikompleksni karbonil guruhlari o'zaro ta'sirlashuv natijasining samarasi deb qabul qilish ehtimoli mavjud (1.b'-rasm).

Xulosa qilish mumkinki, interpolikompleksni qunduz teri kollageni bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida kollagenni polipeptid, ionlashgan gidroksil, amin guruhlari bilan interpolikompleksning karbonil guruhlari bilan kompleks bog'lar ham sodir bo'ldi. Shu bilan bir qatorda interpolikompleks qunduz teri kollageni bilan vodorod bog'larining hosil bo'lish ehtimoli ham mavjud.

Interpolikompleksning qunduz teri kollageni bilan reaksiyaga kirishib qanchalik mustahkam bog'lar hosil qila olish qobiliyatini tadqiq qilish maqsadida differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSC) usulidan foydalanildi va natijalari 2-rasmda keltirildi.



**2-rasm. Namunalarning DSC egri chiziq-lari**

*a'-xrom (III), b'-poliakrilamid, c'-interpolikompleks, d'-sof kollagen, e'-interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen, f'- xrom (III) asosida ishlov berilgan kollagen namunalari*

Namunalar bo'yicha olingan termotahliliy tajribalar natijalarini umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, xrom (III) bilan ishlov berilgan kollagen hamda poliakrilamidning ekzotermik va endotermik jaryonlarida harorat ko'rsatkichi boshqalariga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi. Interpolikompleks hamda u asosida ishlov berilgan kollagen namunalarning ekzotermik va endotermik jarayonlardagi harorati, energiyaning o'zgarishi, jarayondagi energiya ajralishi va issiqlik oqimi boshqa barcha namunalarga qaraganda sezilarli darajada yuqoriligi tajriba sinov natijalaridan ma'lum.

2-rasmda DSC egri chiziqlariga asosan 3-jadvalda namunalarni differensial-termik tahlil qilishning ekzo (endo) termik effektlari keltirildi.

### 3-jadval


#### Namunalarni differensial-termik tahlil qilishning ekzo (endo) termik effektlari

Namuna ko'rsatkichlari	Namunalar					
	tajriba					nazorat
	a'	b'	c'	d'	e'	f'
O'rtacha issiqlik oqimi, mW	17,5	18,7	19,2	17,0	18,8	17,1
Energiya ajralishining boshlang'ich harorati, °C	94,1	65,3	152,4	73,2/215,3/319,5	294,8	72,1
Maksimal cho'qqidagi harorati, °C	120,1	71,8	167,4	94,8/230,9/330,5	297,4	101,7
Energiya yutilish haroratining minimumi, °C	147,5	87,9	176,8	118,9/241,0/342,9	304,2	128,2
Jarayondagi energiyaning o'zgarishi, J/g	54,1	26,0	300,0	25,3/8,9/11,9	36,7	34,9
Jarayondagi energiya ajralishi, mJ	379,0	182,2	2100,0	247,1/62,0/83,6	356,9	203,6
Jarayondagi issiqlik oqimi, mW	3,9	3,6	44,4	2,9/1,3/1,9	13,7	12,8
Sohadagi maksimal issiqlik oqimi, mW	32,0	35,7	74,8	33,7	50,8	37,8

*Bu yerda: a'-xrom (III), b'-poliakrilamid, c'-interpolikompleks, d'-sof kollagen, e'-interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen, f'-xrom (III) bilan ishlov berilgan kollagen namunalari*

Natijalardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, interpolikompleks va u asosida ishlov berilgan kollagen namunalarda harorat intervallarining ortishi, hamda issiqlik oqimining yuqoriligi bilan boshqa namunalardan farqini tajriba sinovlar orqali yaqqol ko'rish mumkin. Bunda, tabiiyki, kollagen namunalarda molekulararo vodorod bog'larning uzilishi amalga oshadi.

Mazkur tadqiqotning navbatdagi bosqichida qunduz terilarini interpolikompleks bilan oshlash darajasining xarakteristikasini aniqlash uchun g'ovak organik birikma kollagen strukturasi choklash jarayoni ularning rentgenografik difraktogrammalari orqali o'rganildi. Ko'rsatilgan refleks kollagen rentgenogrammasining ekvatorida joylashgan. Kollagen difraktogrammasidagi ekvatorial refleks asosiy refleks hisoblanadi (3-rasm). Shu refleksga mos keluvchi tekisliklararo masofa kollageni interpolikompleks bilan oshlash-choklash darajasiga bog'liq holda sezilarli darajada o'zgardi.



**3-rasm. Namunalarning rentgenografik tahlil natijalari**  
*a'-kollagen, b'- interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen namunalari*

Yuqorida keltirib o‘tilgan tajriba natijalariga ko‘ra 3.b'-rasm, ya'ni interpolikompleks asosida ishlov berilgan kollagen namunasida mineral moddalar mavjudligi va u kristall holatdaligi, 3.a'-rasmda, ya'ni kollagen namunasida mineral moddalar yo‘qligi va amorf holatdaligi rentgenografik tahlil natijalaridan ma'lum.

Asosiy ekvatorial refleksiga muvofiq keluvchi qiymat birinchi va uchinchi aminokislotalar zanjirlarini atom guruhlar orasidagi masofasida ikkitadan peptid vodorod bog‘larini hosil qilib, va aynan shunga mos kelish natijasi deb tasavvur qilish mumkin. Interpolikompleks bilan ishlov berilgan kollagen difraktogrammasida ma'lum chastotada ekvatorial refleksning namoyon bo‘lishi kollageni oshlashchoklanishligidan dalolat berib, uning struktura zonalarini qayta tartiblanishiga olib kelish natijasi deb qarash mumkin.

Yuqorida keltirilgan natijalarga ko‘ra interpolikompleks birikmasi qunduz teri kollageni bilan mustahkam kompleks bog‘lar hosil qilgan holda oshlovchilik xususiyatiga ega degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning «**Qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlash, texnologiyasi va xossalarning samaradorligini aniqlash**» nomli to‘rtinchi bobda xomashyo tanlash, unga interpolikompleks asosida ishlov berish texnologiyasi, qunduz mo‘ynasi fizik-kimyoviy, mexanik va adsorbsion ko‘rsatkichlariga interpolikompleksning ta’siri, interpolikompleksni sintez qilishning texnologik sxemasini ishlab chiqish, u asosida qunduz terilarini oshlash texnologiyasi va uning ekspluatatsion xossalari, qunduz terilarini ekologik xavfsiz oshlash texnologiyasi va texnik-iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Tadqiqot ishini bajarish uchun tadqiqot obyekti sifatida teri to‘qimasi 0,5-0,7 mm qalinlikdagi, II navli, o‘rtacha nuqson guruhli, standart qunduz terilari tanlandi.

Interpolikompleksning qunduz teri kollageniga ta’siri tadqiqot natijalarini inobatga olgan holda interpolikompleks tarkibiy qismining dastlabki ulushi bo‘yicha 1-jadvalda keltirilgan 5 xil tajriba (a,b,c,d,e) variantlarda sintez qilingan interpolikompleks birikmasi asosida qunduz terilariga ishlov berildi. Natijalar ishonchli chiqishi maqsadida tanlangan standart qunduz terilari kerakli sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi ayni navdagi terilarning natijalarini taqqoslash yo‘li bilan aniqlangan bo‘lib, ulardan biri nazorat uchun va tajriba uchun esa 5 ta namunalarga ishlov berildi.

Tadqiqot ishining tajriba namunalarini oshlash jarayonida suyuqlik koeffitsiyenti (SK)=10, interpolikompleks sarfi 7,5 g/l, osh tuzi (NaCl) - 40 g/l va natriy karbonat (Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>) – 0,3 g/l, 32-36 °C haroratda, pH= 3,7-4,0 muhitida 11-12 soat davomida gidrotermik destruksiya 60 °C dan oshgunicha oshlash jarayoni olib borildi.

Tadqiqot ishini davom ettirgan holda qunduz terilariga ishlov berishning mavjud an'anaviy uslubidagi oshlashning nazorat namunasida SK=10 va 35 °C haroratda 50 g/l osh tuzi (NaCl), 25 g/l alyumoammoniyli achchiqtosh aralashmasida ishlov berildi va 2 soatdan keyin 5 g/l Moutotan qo'shilgan holda doimiy aralashtirildi va 4 soatdan keyin 2 g/l Tanning Assist B. qo'shildi hamda 1 soat davomida doimiy aralashtirilgan holda suyuqlik muhiti nazorat qilib turildi. Bunda suyuqlik muhiti pH 3,6-3,7 bo'lganda 2 g/l miqdorida Tanning Oil G. qo'shildi va 0,5 soat davomida doimiy aralashtirilgan holda oshlash jarayoni davom ettirildi. Tajribalarni bajarishda yuqorida keltirilgan oshlashgacha va oshlangandan keyingi barcha jarayon va operatsiyalar o'zgartirilmasdan, ya'ni mavjud an'anaviy uslub asosida olib borildi.

Qunduz mo'ynasi fizik-kimyoviy va mexanik ko'rsatkichlariga interpolikompleksning ta'siri o'rganilib natijalari 4-jadvalda keltirib o'tildi.

Natijalarga ko'ra namunalar tarkibidagi namlik, yog' moddalar, mineral moddalar va xrom oksid miqdorlari deyarli bir-biriga yaqin va davlat standartlariga mos keladi. Namunalarining gidrotermik destruksiya harorati tajriba namunalarida mos ravishda 81,3, 82,8, 83,0, 85,3 va 84,1 °C ni va nazorat namunasida 73,0 °C ligi tajriba sinov natijasi asosida aniqlandi. Natijalardan ko'rish mumkinki tajriba namunasining d variantida nazorat namunasiga nisbatan 12,3 °C ga yuqoriligi kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar ishonchliligini tekshirgan holda GOST 12133-86 (ISO 6938) ga solishtirildi va barcha ko'rsatkichlar mos keldi.


#### 4-jadval

#### Interpolikompleks tarkibiy qismiga kiruvchi moddalar miqdorining turlicha qiymatlari va nazorat usuli bilan oshlangan qunduz mo'yna teri to'qimasining fizik-kimyoviy xossalari

Ko'rsatkich	Namuna	tajriba					nazorat	GOST 12133-86 (ISO 6938)
		a	b	c	d	e	f	
Gidrotermik destruksiya, °C		81,3	82,8	83,0	85,3	84,1	73,0	60,0 dan kam emas
Xrom oksid miqdori, %		0,55	0,57	0,6	0,63	0,66	0,57	1,0 dan ko'p emas
Mineral moddalar miqdori, %		4,9	5,6	5,7	6,0	5,9	4,3	-
Yog' moddalar miqdori, %		15,8	15,6	15,8	15,9	15,1	14,1	20,0 dan ko'p emas
Namlik miqdori, %		13,5	13,5	13,5	13,5	13,5	13,5	14,0 dan ko'p emas

Tabiiyki mo'yna sifatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu mustahkamlik va uzilishdagi uzayishi hisoblanadi. Shu sababli oshlangan qunduz mo'ynalari nazorat va tajriba namunalarining uzilishdagi uzayishi, hamda

mustahkamlik chegaralari standart namunalar kesib olingan holda Yaponiyaning WDW-5E uzilish mashinasi yordamida aniqlandi (4-rasm).



**4-rasm. Namunalar uzilishdagi uzayishining mustahkamlik chegarasiga bog‘liqlik grafiklari**

*a,b,c,d,e -tajriba va f-nazorat namunalari*

Natijalarga ko‘ra interpolikompleks asosida oshlangan tajriba (a,b,c,d,e) namunalari uzilishdagi uzayishining o‘rtacha qiymatlari mos ravishda 41,9, 48,1, 48,0, 49,1 va 47,8 % ni, hamda mustahkamlik chegaralari 113,2, 120,8, 127,6, 141,6 va 132,4 N ni tashkil etdi. Nazorat (f) namunasida esa o‘rtacha uzilishdagi uzayishi 42,3 % va mustahkamlik chegarasi 95,2 N ligi va bu natijalar GOST 12133-86 (ISO 6938) ga mosligi tajriba sinovlar asosida aniqlandi.

Qunduz terilarini interpolikompleks asosida oshlashning adsorbsion tahlilida dermaninig g‘ovakli strukturasi o‘rganish maqsadida interpolikompleks asosida oshlangan tajriba qunduz mo‘ynalari va an’anaviy usulda oshlangan nazorat qunduz mo‘yna teri to‘qimasi tanlab olindi va natijalari 5-jadvalda keltirildi.

**5-jadval**


**Namunalarning adsorbsion xarakteristikallari**

Ko‘rsatkich	Namuna	tajriba					nazorat
		a	b	c	d	e	f
Monoqavat sig‘imi mol/kg		2,249	2,701	2,370	2,608	2,064	3,376
Solishtirma yuza, m <sup>2</sup> /g		146,23	175,60	154,10	169,58	134,19	188,99
Mikrog‘ovak, sm <sup>3</sup> /gr (W <sub>o</sub> )		0,1136	0,1373	0,1395	0,1335	0,1164	0,2033
To‘yinish hajmi, mol/kg (V <sub>s</sub> )		0,1701	0,2020	0,2365	0,2075	0,1701	0,3152
